



IJTIMOIY TARMOQLARNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI VA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI.

Aldashev Ilhomjon

Farg'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasи o'qituvchisi

Muhammadjonova Muhayyo

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'naliши talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi davrda inson shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni o'rganilgan. Milliy qadriyatlarga qarshi tahdid va mafkuraviy va g'oyaviy tahdidilar tobora kuchayib borayotgan bir patda yoshlар ijtimoiy tarbiyasi va ularga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, Sotsial tarmoqlar, virtual, mafkura, destruktiv, globallashuv, igromaniya.*

Biz ijtimoiy tarmoqning o'mi va qadri juda baland , ikkinchi oilamiz , do'stimiz va hatto o'zimizga aylanib borayotgan isbot talab qilmaydigan davrda yashayotganimizni inkor qila olmaymiz

"Ijtimoiy tarmoqlar yoshlар tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi". Bugungi kunda internetdagi ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa yoshlар orasida ommalashib bormoqda.

Inson hozirgi vaqtida ijtimoiy tarmoqlarga ketkazadigan vaqtı oila a'zolari va do'stlariga ajratgan vaqtidan hech ham qolishmaydi ,balki undan ham ko'proqdir. Bugungi kunda ijtimoy tarmoqlar , har xil saytlar tobora ko'payib bormoqda.Hozirda ular bolalarning barcha bo'sh vaqtlarini hatto boshqa ishlarga sarflaydigan vaqtlarini o'g'irlamoqda. Kitob o'qiydigan bolalar soni kundan kunga kamayayotgani achinarli holatga olib kelayapdi. Bolalar kitob o'qish o'rniga vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarga sarflaydilar va hatto ular ovqatlanayotgan vaqtlarida ham internet , ijtimoiy tarmoq, mobil aloqa vositalaridan foydalanishadi. Eng daxshatlisi shuki, ruhshunoslarning ma'lumotlariga qaraganda , yoshlarda destruktiv va buzg'unchi , mafkuraviy g'oyalarga to'liq shakillanmagani uchun o'qigan va ko'rgan axborotlariga tez ishonadi. Bunday holatlarda internet bolalarning ma'naviyatiga va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ko'rinish turgan, dalil talab qilmaydigan haqiqatdir . Hozirgi globallashuv jarayonida butun jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtiolaridan biri bo'lgan sotsial tarmoqlarni chetlab o'tolmaymiz . Ayni vaqtida sotsial tarmoqlar butun dunyoni qamrab organ . Ayniqsa, yosh avlodga juda ham sotsial tarmoqlarni yaxshi ko'radi. Yoshlar uchun sotsial tarmoqlarni ma'qullaydi va unga ijobjiy baho beradi. Chunki, ularning vaqtini o'tkazishning eng yaxshi yo'lli hisoblanadi.Internet kundan kunga rivojlanib borgan sayin odamlar ham unga bog'lanib qolayapdilar. Biz real hayotda yashaymiz, virtual hayot esa bizdan



ancha yiroqda . Biz kundalik hayotda odamlar bilan fikr almashamiz, ularning fikri , dunyo qarashi tufayli o'zimizga kerakli bo'lgan xulosalarni chiqaramiz. Virtual hayot esa insonni tamomila fikri, dunyoqarashi va ongini o'zgartirib mumkin .

Bunda tashqari sotsial tarmoqlar g'arazgo'y odamlarning maqsadlarini amalga oshirishi uchun xizmat qilishi mumkin. Hozirgi vaqtida turli xil o'yinlar , video roliklar va qalbaki rasmlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni o'z domiga tortishi mumkin. Yoki yolg'on ma'lumotlar bilan o'z maqsadlariga erishishlari mumkin. Hatto sotsial tarmoqlar qotilliklar, isyonlar, urushlarga sabab bo'lishi mumkin.

Yoshlar internet , ijtimoiy tarmoqlardan ta'lim sohasida ham foydalana oladi. Internet sahifalardan o'ziga kerakli bo'lgan, o'zi qiziqgan ma'lumotlarni topa oladi . Yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlarda bo'sh vaqtini foydali narsalarga sarflashi kerak. Ko'pincha foydasiz narsalar bilan shug'ullanish esa salbiy oqibatlarga olib kelayapdi. Tilimizga yaqinda kirib kelgan igromaniya tushunchasi bor. "Igromaniya"- bu kompyuterdan o'r'in olgan turli xil o'yinlarga mukkasidan ketishdir.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki yoshlar internet olamida o'z o'rnini to'g'ri belgilashi va foydalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qilish, virtual olamdag'i axborotlarni to'g'ri tahlil qilishi kerak. Kundalik hayotimizda har narsaning salbiy va ijobiy tomoni bo'lgani kabi kundan kunga zamonaviylashib borayotgan internet, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham me'yorga amal qilmog'imiz zarur!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy taraflari Asqaraliyeva Azizaxon I Aldashev
2. Zamonaviy smart texnologiyalarning ta'lim jarayonida ishlatalishi.Xatambekova Hamrobi I Aldashev
3. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'sir.Turkenbayeva D. E.
4. Sun'iy idrokning kelajakka ta'siri : uning insoniyat hayotidagi ahamiyati Z Sidiqova , I Aldashev.